



## SHAHAR KO`CHA YO`LLARIDA TRANSPORT OQIMIGA MAVJUD TA`SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNI TAHLILI

---

*Soliyev Axrorbek Farxodbek o`g`li*

*Andijon mashinasozlik instituti stajor o`qituvchisi*

*Zokirov Dostonbek Zohidjon o`g`li*

*Andijon mashinasozlik instituti stajor o`qituvchisi*

Hozirgi davr shaharlarning tez sur`atlar bilan rivojlanishi obodonlashtirish ishlarining yanada yaxshilanishi va shahar aholisi sonining keskin ortib borishi bilan tavsiflanadi.

Bunday sharoitda shahar aholisiga yuqori sifatli transport xizmatini ko`rsatish shahar yo`lovchi transportini yanada rivojlantirish, tashishning yanada yangi va samarali yo`llarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Shahar transport tarmog`ida avtomobil transportida tashishni tashkil etish o`ziga xos xususiyatlarga ega. Ta`kidlab o`tish lozimki shaharlarda yo`lovchi tashish jarayonlarini boshqarish masalalarining asosiy murakkabligi – tashish sharoiti va tashish oqimlarining shakllanishidagi noaniqliklar hisoblanadi [1].

Yo`lovchi oqimi kattaligiga ta`sir etuvchi ko`pchilik omillarni ta`siri vaqt mobaynida o`zgarib turuvchi va ehtimoliy xarakterga ega bo`ladi.

Yo`lovchi oqimlari shakllanishiga kun vaqtlari, haftaning kunlari va yil mavsumlari ham ta`sir etadi. SHahar aholisiga transport xizmati ko`rsatish sifati va miqdori quyidagi to`rt guruhga oid omillar bilan xarakterlanadi [2]:

shahar aholisining transport (tashish) xizmatiga bo`lgan ehtiyojlariga bog`liq ravishda shakllanuvchi yo`lovchi oqimlari parametrlari;

transport xizmati bozorida yo`lovchi tashuvchi tashkilotlar faoliyatini xarakterlovchi parametrlar;

shahar transport infratuzilmasi (avtomobil, tramvay, trolleybus, metropoliten yo`llari va transport tarmog`i, to`xtash bekatlari va stansiyalari); 4) tashqi muhit ta`siri.

Shahar yo`lovchi transporti xizmatiga bo`lgan talab yo`lovchi oqimlarini o`rganish va tahlil etish asosida baholanishi mumkin. Oqimlarni o`rganish ma`lum darajada aholining shahar hududining turli hududiy rayon, maydon va manzillariaro harakatlanishi haqida ham ma`lumotlar berishi mumkin. Oqimlar yo`lovchilarning shahar hududida xarakatlanishiga bo`lgan ehtiyojidan kelib chiqadi [3].

Yo`lovchilar harakatlanishini ikkita turga bo`lish mumkin:



1) yo‘nalishlardagi harakatlanish (korrespondensiya); 2) tarmoqdagi harakatlanish.

Hozirgi paytda yo‘lovchi oqimlarini kuzatish va tahlil etishning ko‘plab usullari mavjud bo‘lsa ham, quyidagi ikki kamchilik ularni barchasiga xosdir:

yo‘lovchi oqimlarini o‘rganish shaharning ma‘lum hududida ma‘lum vaqt intervalida o‘tkaziladi, ammo bunda olingan natijalar butun shaharga umumlashtiriladi va barcha vaqt intervallari uchun foydalaniladi;

O‘rganilgan holat o‘tmishga tegishli bo‘ladi, ammo uning natijalaridan kelajakdagi echimlar uchun foydalaniladi. Boshqacha aytganda, o‘rganilgan yo‘lovchi oqimi –tashishga bo‘lgan o‘tmishdagi talabning amalda bajarilishi natijasi bo‘lib, kelajakda kutilayotgan oqim undan farqli bo‘lishi mumkin;

oqimlarni o‘rganish va tahlil etish juda katta hajmdagi mehnat sig‘imini (minglab odam-soat) talab etuvchi tadbir bo‘lib, bunda juda katta xarajatlar lozim bo‘ladi [4].

Masalani istiqbolda kutilayotgan tashish xajmining shahar aholisi harakatlanishini yuzaga keltiruvchi omillar bilan bog‘lanishini aks ettiruvchi matematik modellar orqali hal etish mumkin. Bunda yo‘lovchi oqimlarining istiqboldagi kattaliklarini aniqlashda aholining transport harakatchanligini shakllantiruvchi quyidagi uch guruhga oid omillarini hisobga olish muhim:

Birinchi guruh omillari yo‘lovchi tashish sharoitini xarakterlashga imkon beradi: shahar plani va planirovkasi; aholi yashash massivlari, madaniy dam olish joylari, savdo-sotiq markazlari va sanoat korxonalari, dala hovlilarning joylashuvi; yo‘l tarmog‘i va infratuzilmasi joylashuvi; ko‘rilayotgan vaqt-mavsum, oy, hafta kunlari, kun soatlari va h.k [5].

Ikkinchi guruh omillari aholining yo‘lovchi tashishga bo‘lgan talabini xarakterlaydi. Mazkur talabning segmentlashtirilishi (guruhlariga bo‘linishi) shahar aholisining ijtimoiy va kasbiy tarkibiga bog‘liq. Bu esa ko‘p jihatdan ularning transport yo‘lkira narxi, harakatlanish tezligi, qulayligiga, ishonchli va xavfsizligiga bo‘lgan talablariga bog‘liq. Yo‘lovchilarning shahar transportiga bo‘lgan talablarini guruhlashtirish ko‘rsatkichi ular harakatlanishiga sarf bo‘layotgan vaqtning ijtimoiy-iqtisodiy bahosi bo‘lishi mumkin [6].

Uchinchi guruh omillari shahar yo‘lovchi transportiga doir raqobat muhiti bilan izohlanadi. SHahar transport xizmat bozorida turli tashkilot va mulkchilik shakliga ega tashuvchilar ishtirok etadi: aksiyadorlik jamiyatlari, mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar yoki xususiy tadbirkorlar va h.k.



Shahar yo'lovchi tashuvchilarining faoliyati amaldagi huquqiy- me'yoriy qoidalar doirasida hamda shahar hokimiyati organlari nazorati va ta'sirida amalga oshiriladi.

Shaharda yo'lovchi transportida tashish jarayonlarini boshqarish – yo'lovchi oqimlarini va tegishli axborotlarni jo'natuvchi manzildan etib borish manziliga etkazishni samarali rejalashtirish va boshqarish asosida aholining harakatlanishga bo'lgan ehtiyojini samarali qondirishdan iborat. Ko'rsatilishi rejalashtirilayotgan transport xizmatining maqsadi, vazifalari va ko'rsatkichlari aholining tashishga bo'lgan ana shu ehtiyojlari bilan aniqlanadi [7].

Jamoat transporti faoliyatining logistic maqsadi aholiga xizmat ko'rsatish vazifalarini bajara olgan holda umumiy xarajatlarni minimallashtirishdan iborat.

Aholiga transport xizmati ko'rsatishning mezonlari tashish hajmi va sifatiga qo'yilayotgan talablarni qay darajada to'laqonli bajarish lozimligi asosida aniqlanadi. Masalan, tuzilgan harakat jadvalini qay darajada aniq bajarilishini ta'minlash lozim. Xizmat ko'rsatish darajasiga qanchalik yuqori talablar qo'yilsa, uning narxi shuncha yuqori bo'ladi. Ammo bahoning o'zi maqsad funksiyasi bo'la olmaydi, shu tufayli ma'lum kompromis topishga to'g'ri keladi [8].

Transport xizmati maqsadini aniqlashdagi asosiy muammo – jamiyatning barcha manfaatlarini hisobga olish zaruriyatidir. Bunda biz faqat transport vositalari egalari yoki jamoat transporti korxonalari manfaatlarini hisobga olish bilan cheklanmasligimiz zarur. Shu tufayli shaharda yo'lovchi tashish jarayonlarining strategik logistik boshqaruv modelini shakllantirish va qo'llash asosida maqsadga erishishda quyidagi bosqichlarni amalga oshirishni hisobga olish lozim [9]:

1-bosqich: shahar boshqaruv organlarining shaharda yo'lovchi tashish jarayonlari sifatini oshirish bo'yicha siyosiy va ijtimoiy maqsadlarini va ularga erishish yo'llarini asoslash;

2-bosqich: aholining shaharda harakatlanish vositalarini tanlash mezonlariga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, bu omillarga shahar yo'lovchi transportining qulayligini oshirish maqsadida ta'sir etish;

3-bosqich: logistik tizimni rivojlantirish traektoriyasini ta'minlash uchun lozim bo'lgan xarajatlarni aniqlash, ularni mavjud imkoniyatlar bilan solishtirish va lozim bo'lsa, qo'shimcha imkoniyatlar tug'diruvchi manbalarni aniqlash [10-11].



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Soliyev A., Shukurjon B. ZAMONAVIY TRANSPORT LOGISTIKA MARKAZ FAOLIYATINI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 575-580.

2.Bakirov L. Y., Soliyev A. F. TRANSPORT VA PIYODALAR HARAKAT OQIMINING JADALLIGI VA TARKIBINING O ‘ZGARISHI //Journal of new century innovations. – 2023. – Т. 25. – №. 3. – С. 53-55.

3.Soliyev A., Raximbek X. TRANSPORT VOSITALARI KONSTRUKTIV XAVFSIZLIK TIZIMLARINI JORIY ETISHNING TASHKILY VA HUQUQIY ASOSLARI TAXLILI //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 568-574.

5.Farxodbek o‘g‘li S. A., Dadajan o‘g‘li A. S. TRANSPORT LOGISTIKASI MARKAZINI YARATISH VA LOYIHALASH //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 10. – №. 1. – С. 115-120.

6.Xusniddin o‘g‘li P. A. PORSHEN HALQANING UZOQ ISHLASHINI BELGILOVCHI ASOSIY KATTALIKLAR //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 680-685.

7.Asiddin P. et al. SILINDR-PORSHEN GURUHI ELEMENTLARINING TAVSIFI VA DVIGATELNING EFTEKTIV KO‘RSATKICHLARI //Scientific Impulse. – 2023. – Т. 1. – №. 11. – С. 605-611.

8.Asiddin P. et al. PORSHEN HALQASINING ISHIGA TA‘SIR QILUVCHI OMILLAR //Scientific Impulse. – 2023. – Т. 1. – №. 11. – С. 611-620.

9. Kholmatov U. S. et al. Characteristics of optoelectronic discrete displacement converters with hollow and fiber light guides //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 471. – С. 06015

10. Farxodbek o‘g‘li S. A., Dadajan o‘g‘li A. S. TRANSPORT LOGISTIKASI MARKAZINI YARATISH VA LOYIHALASH //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 10. – №. 1. – С. 115-120.

11. Melikuziev A. et al. IMPROVING THE PERFORMANCE OF THE FUEL INJECTION SYSTEM //Development and innovations in science. – 2022. – Т. 1. – №. 14. – С. 10-14.